



Sirdaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar- iyun


E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,2 %ni tashkil etdi.
- 1524 ta yangi kichik korxon va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 16,9 birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-iyunida 1524 ta yangi kichik korxon va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxon va mikrofirmalar savdoda (34,1 %), sanoatda (22,3 %), qurilishda (12,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (12,6%), yashash va ovqatlanishda (10,6 %), tashish va saqlashda (1,5 %) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxon va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo



Sanoat



Qurilish



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Yashash va ovqatlanish




Tashish va saqlash

2019 yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	7969	9626	1657
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	730	1524	794
YaHM	%	73,3	69,2	-4,1
Sanoat	%	48,8	44,9	-3,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,8	99,8	-
Investitsiya	%	69,4	48,5	-20,9
Qurilish	%	96,8	97,0	0,2
Savdo	%	94,4	88,5	-5,9
Xizmatlar	%	64,3	56,6	-7,7
Yuk tashish	%	95,7	96,1	0,4
Yuk aylanmasi	%	95,1	95,7	0,6
Yo'lovchi tashish	%	97,0	97,1	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,4	98,4	-
Eksport	%	72,1	74,9	2,8
Import	%	96,1	68,0	-28,1



2019 - yilning yanvar - iyunida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %




Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	yanvar-iyun 2018 y.	yanvar-iyun 2019 y.
Sirdaryo viloyati	730	1524
<i>shaharlar:</i>		
Guliston	178	387
Shirin	18	26
Yangier	72	113
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	46	85
Boyovut	62	130
Sayxunobod	80	113
Guliston	51	119
Sardoba	36	100
Mirzaobod	41	116
Sirdaryo	108	257
Xovos	38	78

2019 - yilning yanvar-iyunida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Guliston shahrida - 387 ta, Sirdaryo tumanida - 257 ta, Boyovut tumanida - 130 ta. Guliston tumanida - 119 ta, Mirzaobod tumanida - 116 ta, Sayxunobod tumanida - 113 ta, Yangier shahrida - 113 ta. Sardoba, Oqoltin, Xovos tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 100-78 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Shirin shahrida -26 tani tashkil etgan.



2019 yil yanvar-iyun holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi



2019 - yil yanvar - iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Guliston shaharga - 25,4 %, Sirdaryo tumani - 16,9 %, Boyovut tumani - 8,5 %, Guliston tumani - 7,8 %, Mirzaobod tumani - 7,6 %, Sayxunobod tumani 7,4 %, Yangier shahar - 7,4 %, Sardoba tumani 6,6 %, Oqoltin tumani - 5,6 %, Xovos tumani - 5,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar

	yanvar-iyun 2018 y.	yanvar-iyun 2019 y.
Jami	730	1524
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	134	192
Sanoat	119	340
Qurilish	124	186
Savdo	193	519
Tashish va saqlash	22	23
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	58	162
Axborot va aloqa	10	15
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	9	8
Boshqa turdagi xizmatlar	61	79

Ma'lumot uchun: 2019 yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda - 519 ta, shuningdek :

sanoatda - 340 ta;

qurilishda - 186 ta;

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 192 ta;


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar –162 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

	yanvar-iyun 2018 y.	yanvar-iyun 2019 y.	farq.(+/-)
Guliston shahar	178	387	209
Sirdaryo tuman	108	257	149
Boyovut tuman	62	130	68
Guliston tuman	51	119	68
Mirzaobod tuman	41	116	75
Yangier shahar	72	113	41
Sayxunobod tuman	80	113	33

2019 yil yanvar-iyunida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Guliston shaharda – 209 ta, Sirdaryo tumanida - 149 ta, Boyovut tumanida - 68 ta, Guliston tumanida - 68 ta, Mirzaobod tumanida - 75 ta, Yangier shahrida - 41 ta, Sayxunobod tumanida bu ko'rsatkich 33 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Guliston shahrida 34,9 birlikda, Oqoltin tumanida 18,1 birlikda, Mirzaobod tumanida 17,4 birlikda, Sirdaryo tumanida 17,1 birlikda, Yangier shahrida 17,0 birlikda, Sayxunobod tumanida 17,0 birlikda, Guliston tumanida 16,4 birlikda aniqlandi. Shirin shahrida 10,4 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

2019 yil yanvar-iyun uchun




Ma'lumot uchun: Agar, 2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 18,0 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 16,9 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 1,1 birlikka kamaydi.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - iyun holatiga.**



Quyida, 2019 - yilning yanvar-iyunida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 44,9 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 99,8 %, qurilishda - 97,0 %, investitsiyada - 48,5 %, savdoda - 88,5 %, eksportda - 74,9 %, importda - 68,0 % va xizmatlar sohasidagi - 56,6 % ulushi aniq ko'rsatilgan.


**2019 - yilning yanvar - iyunida iqtisodiy faoliyat turlarida
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi**




**Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %**

2019 yilning yanvar-iyunida kichiktadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,2 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-iyunida 73,3 %).

YaHM tarkibida pasayish yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi



**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan %da)**



2019 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Sirdaryo viloyati	44,9	97,0	56,6	48,5
<i>shaharlar:</i>				
Guliston	77,5	97,8	31,9	41,3
Yangier	54,4	98,3	97,0	51,4
Shirin	0,8	96,4	91,2	29,9
<i>Tumanlar:</i>				
Oqoltin	40,4	93,9	91,6	43,6
Boyovut	45,3	99,5	78,1	30,5
Sayxunobod	77,3	96,9	35,0	72,8
Guliston	70,3	100,0	95,2	45,0
Sardoba	28,0	100,0	79,4	77,7
Mirzaobod	100,0	95,4	95,0	78,8
Xovos	55,7	83,2	94,0	46,0
Sirdaryo	88,5	99,9	93,9	62,0


Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Mirzaobod tumani (100,0 %), Sirdaryo tumani (88,5 %), Guliston shahri (77,5 %) tashkil etadi.

Qurilishda - Guliston tumani (100,0 %), Sardoba tumani (100,0 %), Sirdaryo tumani (99,9 %) va Boyovut (99,5 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Yangier shahar (97,0 %), Guliston tumani (95,2 %), Mirzaobod tumani (95,0 %), Xovos tumani (94,0 %), Sirdaryo tumani (93,9 %) va Oqoltin (91,6 %) tumanlari tashkil etadi.


Investitsiyada - Mirzaobod (78,8 %), Sardoba (77,7 %) va Sayxunobod (72,8 %) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2019 - yilning yanvar - iyunida






Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning,
jami eksport hajmidagi ulushi, %




● Yanvar - iyun 2019 - y.

2019 - yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Shirin shaharda - 100,0 %, Xovos tumanida - 99,9 %, Sardoba tumanida - 99,3 %, Yangier shaharda - 98,8 %, Guliston tumanida - 98,8 %, Oqoltin tumanida - 96,4 %, Sayxunobod tumanida - 89,6 %, Sirdaryo tumani - 78,9 % va Guliston shahrida - 76,1 %, eng past ko'rsatkichni Boyovut tumani - 27,4 %ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (567,2 mlrd. so'm), Guliston shaharda (409,1 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (120,1 mlrd. so'm) Sayxunobod tumanida (90,5 mlrd. so'm) va Boyovut (73,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shaharda (10,2 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.





2019 - yil yanvar - iyun holatiga jami sanoat mahsulotidagi
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (100,0 %), Sirdaryo tumani (88,5 %), Guliston shahri (77,5 %), Sayxunobod tumani (77,3 %), Guliston tumani (70,3 %), Xovos tumani (55,7 %), Yangier shahri (54,4 %), Boyovut tumani (45,3 %), Oqoltin tumani (40,4 %), va Sardoba tumanida (28,0%). Shirin shahrida (0,8%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.

2019 - yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so`m



Hududlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (463,3 mlrd. so`m), Sirdaryo tumani (223,2 mlrd. so`m), Yangier shahri (121,2 mlrd. so`m), Mirzaobod tumani (121,3 mlrd. so`m) va Boyovut tumani (70,3 mlrd. so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.


2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri (247,1 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (91,7 mlrd. so'm), Yangier shahri (57,9 mlrd. so'm) Boyovut (50,0 mlrd.so'm) hamda Mirzaobod (49,4 mlrd. so'm), Oqoltin (46,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Guliston shahri (195,3 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (127,5 mlrd.so'm), Yangier shahri (78,2 mlrd.so'm) va Mirzaobod (51,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil II-chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 73 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Ulardan sanoat korxonalarini soni - 16 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 22,0 %), qurilish - 9 ta (12,3 %), savdo - 25 ta (34,2 %), xizmatlar sohasi - 14 ta (19,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 9 ta (12,3 %) ni tashkil qildi.



2019 yil II - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Guliston shahrida - 32,9 % (24 ta), Sirdaryo tumanida - 21,9 % (16 ta), Mirzaobod tumanida - 9,6 % (7 ta), Sardoba tumanida - 8,2 % (6 ta), Sayxunobod tumanida - 6,8 % (5 ta), Yangier shahrida - 6,8 % (5 ta).

Tarmoq	birlikda
Sanoat	16
Qurilish	9
Savdo	25
Xizmatlar	14
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	9

2019 yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2019 yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 11,1 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 22,2 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 68,0 % va 24,0 %, xizmatlar sohasida – 28,6 % va 42,9 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 22,2 % va 44,4 %, sanoatda – 56,3 % va 18,8 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 25,0 %, qurilishda – 66,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 33,3 %, xizmatlarda – 28,6 % va savdoda – 8,0 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash
2019 yil III-chorak uchun, %





Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 93,8 % -sanoat korxonalari, 80,0 % – savdo, 71,4 % – xizmatlar, 44,4 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 77,8 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: B.Mamadaliyev

Tel.: (0371) 230-86-16